
Aholini ro'yxatga olishning uzun va qisqa varaqa shakllaridan foydalanish

Aholini ro'yxatga olishning uzun va qisqa varaqa shakllaridan foydalanish

An'anaviy ro'yxatga olish jarayonida ko'plab xususiyatlar bo'yicha ma'lumotlarni to'plashda respondentlarga yukni kamaytirish uchun ma'lumotlar yig'ish qisqa ro'yxatga olish varaqasidan (tanlangan savollarni o'z ichiga olgan) va uzun savolnoma varaqa shakllaridan (muayyan belgilar bo'yicha ko'plab savollar bilan) foydalanishni nazarda tutishi mumkin. Uzun savolnoma varaqa shakllari faqat tanlanma uy-joylar, uy xo'jaliklari yoki shaxslar bo'yicha to'ldiriladi. Uzun va qisqa savolnoma varaqa shakllaridan foydalanish rejalashtirishni, o'quv dasturini va joylarda so'rov o'tkazishni murakkablashtirmasdan va nazorat qilib bo'lmaydigan sarf-xarajatlarni ko'paytirmasdan ko'proq ma'lumot to'plash imkonini beradi. Biroq, axborot uchun tobora ortib borayotgan talabni hisobga olgan holda, ushbu strategiya yangi muhosabalariga olib kelishi mumkin, chunki uzun ro'yxatga olish varaqasidagi savollar soni yuqorida keltirilgan sabablarga ko'ra cheksiz ravishda o'sib bora olmaydi. Agar "bir vaqtdalilik" tamoyili ustun bo'lsa, mamlakatlar qisqa ro'yxatga olish varaqasi va ikki yoki undan ortiq uzun shakllardan ma'lumotlarni to'plash masalasini ko'rib chiqishlari mumkin, bu holda uzun ro'yxatga olish varaqasi uy xo'jaliklari yoki shaxslarning alohida tanlanmasi bo'yicha to'ldiriladi. Shu bilan birga, bir nechta savolnoma shakllaridan foydalanish bir-biriga bog'langan tanlanmalarni shakllantirish zarurati, maydonda aholini ro'yxatga olish varaqalarini nazorat qilish va butun to'plam bo'yicha natijalarni tortish bilan bog'liq qo'shimcha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ko'p omilli tahlil qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

E. Normatov Oltiariq tumani Statistika bo'limi boshlig'i.

2024-10-16 16:14:07